

## **SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA "QORA" LEKSEMASINING ISHLATILINISHI**

To‘xtayeva Dilafruz Shuhrat qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti 1- kurs magistranti

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada Shavkat Rahmon she‘rlarida uchraydigan "qora" leksemasining ishlatilinishi va uning o‘ziga xos tomonlariga to‘xtalinadi. Shuningdek, shoirning poetik individualligini ochib berishda bu so‘zning o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so’zlar:** poetik individuallik, mikromatn, qo‘llanilish chastotasi, antonimlik, qora leksemasi, alliteratsiya, lingvistik tahlil, ta‘sirchanlik.

## **УПОТРЕБЛЕНИЕ ЛЕКСЕМЫ «ЧЕРНЫЙ» В ПОЭЗИИ ШАВКАТА РАХМАНА**

Тухтаева Дилафруз Шухратовна

Именем Шарофа Рашидова

аспирант 1 курса Самаркандского государственного университета



### **Аннотация:**

Данная статья посвящена использованию лексемы «черный» в стихотворениях Шавката Рахмана и ее специфическим аспектам. Также подчеркивается роль и значение этого слова в раскрытии поэтической индивидуальности поэта.

**Ключевые слова:** поэтическая индивидуальность, микротекст, частотность употребления, антонимия, черная лексема, аллитерация, лингвистический анализ, экспрессивность.

## **THE USE OF THE LEXEME "BLACK" IN SHAVKAT RAHMAN'S POETRY**

Tukhtaeva Dilafruz Shukhratovna

In the name of Sharof Rashidov

1st year graduate student of Samarkand State University

## **Abstract:**

This article is devoted to the use of the lexeme “black” in the poems of Shavkat Rahman and its specific aspects. The role and significance of this word in revealing the poetic individuality of the poet is also emphasized.

**Key words:** poetic individuality, microtext, frequency of use, antonymy, black lexeme, alliteration, linguistic analysis, expressiveness.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 21-oktabrdagi O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimida so’zlagan quyidagi fikrlari mana shu o’zbek tilining o’z egasi sifatida bizning qalbimizda bir faxr-iftixor tuyg’usini beradi: Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo’lgan o’zbek tili xalqimiz uchun milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o’zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo’lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o’lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo’shiqlariga quloq tutsin”.[1]

Ma’lumki, har qanday badiiy matnning yuzaga kelishida eng birinchi omil bu - ijodkor, u foydalanadiga til hamda badiiylikning jamlanmasidir. Ijodkorning o’ziga xos individual mahorati sababli, matnda ishlatilgan har qanday unsur poetik birlikka hamda ana shu ijodkorninggina uslubiga xos bo’lgan poetik individual vositaga aylanishi mumkin. Har qanday ijodkor yaratayotgan matnida qandaydir stilistik maqsadlarni ko’zlab, til boyligidagi so’zlardan foydalanadi. Ularni bir qolipga tushirguncha unisini olib, bunisini, bunisining o’rniga bunisini qo‘yadi. Ammo shu narsa aniqliki, ijodkor matnida qo’llagan har bir jumla shu matn tarkibida o’ziga xos bir vazifani, ma’nolar jamlanmasini tashiydi.

Shu o’rinda biz aytmoqchi bo’lgan narsa ham aynan mana shunday so’zlar, ya’ni Shavkat Rahmon ijodida, uning she’rlari tarkibida uchraydigan “qora” leksemasining poetik individuallikni yuzaga chiqarishdagi o’rni va vazifasi bilan bog’liq. Olamning lingvistik manzarasini anglashda rang bildiruvchi so’zlarining ishtiroti alohida ekanligini ularning badiiy matnlardagi qo’llanishi yaqqol namoyish etib turadi. Biron bir ijodkor yo’qki, tasviriy vositalarning bu turkumiga murojaat qilmagan bo’lsin. Shu sababdan, tadqiqotchilar ranglar olamini his etish va undan badiiy matnlarda foydalanishda lingvokulturologik va antropotsentrik yondashuvlarning ahamiyatli ekanligini qayd etadilar. ularning Shavkat Rahmon she’rlaridagi semantik-stilistik va poetik ta’sir ko’lami shu qadar kengki, ularni bir



tadqiqot doirasida qamrab olishning amalda imkoniy yo'q. Vaholanki, shoir she'rlarida oq, qora, yashil kabi rang bildiruvchi so'zlarning qo'llanilish chastotasi ham anchagina. Quyida biz ijodkor she'rlarida uchraydigan "qora" leksemasining semantik-stistik jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

QORA. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da rang bildiruvchi so'zlar orasida qora o'zining polisemantik imkoniyati bilan alohida o'rinn tutadi. Shavkat Rahmon qo'llagan qora elementining mavzu va mazmun ko'lami ham ana shu ma'nolar doirasida, ba'zan esa undan tashqarida poetik mazmun kasb etgan. Shoir ijodida uchraydigan "qora" so'zining ko'p qismini metaforik epitetlar tarkibida kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday vaqtda ular ko'proq badiiy ifodaviylikni oshirish, ta'sirchanlikni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi: Boshqa qizlar esa qochar,/ Jonholatda qochar voylab,/ portlab **qora** atirgullar / yashnayotgan mudhish joydan. (Saylanma) Yoki Tongni izlab hadeb **qora** / Yerni cho'qir xo'rozlar ham.(Saylanma)

Shuningdek, shoirning ayrim she'rlarida tabiat manzarasini yoritishda ham qora so'zining ishlatilganligini ko'ramiz. Bu bilan shoir she'rdagi tasviriylikka bu so'z ifodalayotgan ma'no orqali urg'u berayotgandek tuyiladi: Cho'l go'zaldir, / Ortinga ammo / o'girildim bir sezgi bilan / izlarimda vahma-la shitob / o'rmalardi **qop-qora** ilon. (Saylanma) Yoki shoir quyidagi misralarda qora leksemasining ifodalagan ma'no ottenkasi orqali kech kuz manzaralarini yoritadi: Qushlar do'nar **qora** barglarga / Nurlar so'nar shabnamalarida.(Saylanma)

Shoir asarlari matnidagi qora o'lim, qora zindon, qora ter, qora g'am, qop-qora devor, qoracha chinnigul, qora guldur, qora yer, qora qul, qora cho'qqi, qora jinoyat, qora gardan, qop-qora chechak, qora buyuk, qora dor, qora maskan, qora baxt, qora tosh, qora o'rmon, qora qon, qora vodiy, qora sel, qora soqol, qora haykal, qora qor, qora guruh singari metaforik epitetli birikmalar Shavkat Rahmon poetik individualligining eng sara namunalari sifatida uning she'lariga teran falsafiylik, betakror badiiylik bag'ishlaydi: Tokay bu iblislik, / Tokay bu yolg'on, / Tokay tig' ko'tarar **qora** guruhi.(Saylanma). **Qora** guldur kabi otlar / Taqalari ham **qoradir**. (Saylanma). Korridad yerparchin bo'lar / **qora** o'lim - buqa shoxidan. (Saylanma). Kelar **qora** rido kiygan tun / Sukunatning qushlarin suyar. (Saylanma). Dunyoga sigadim, / sig'madi dunyo/ g'urbatdan toraygan tabiatimga, / **Qop-qora** chechakdek sochilmish xulyo / jo'mardlar ko'milgan tariqatimga. (Saylanma)

Umuman olganda, Shavkat Rahmon she'rlaridagi qora leksemasi otlashaganda ham, fe'l yasalganda ham yoki epitetlar tarkibida kelganda ham o'zining manfiy ottenkalari bilan yanada aktuallashadi, lirik qahramon ichki olamidagi noxush



kayfiyatlar ifodasi sifatida tasviriyliz kasb etadi: Fosh bo'lib qolganda **qora** jinoyat, / Qizil shinaklardan boqqan o'g'rilar, / Tag'in bir nayrangni topib nihoyat / O'zbeklar boshiga qo'yari to'g'rilab. (Saylanma) So'zning ushbu semalar bilan voqelanishi, ayniqsa, uning oq va qoraning bir mikromatn doirasida antonimik muvozanatda qo'llanishida aniq ma'lum bo'ladi: Og'izlarda bulutday ko'pik, / Yuzlari **oq**, ichlari- **qora**. / Qizig'i, bu zotlar qaylarda / kimlarnidir qilar idora. (Saylanma)

Shuningdek, qora so'zi matn tarkibidagi ta'sirchanlik va jozibadorlikni oshirishda alliteratsiyalarni yuzaga keltirishdagi ishtirokini ham ko'rishimiz mumkin: Oniy jamolidan ko'zim qamashdi, / lahzada **qorayib qoldi qorliklar**. (Saylanma). Qirqa qora **qul** yotar moziyda / Qirqa cherigini yo'qotgan bekman. ( Saylanma). **Qoraygan cho'qqilar qoriga qarab /**Bir nafas xayolchan o'snirg'a do'nsam.(Saylanma). Qayerdanaman, **qayga borarman, /**Qora zindon naqadar chuqur.(Saylanma)

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she'rlari har bir so'zning ham shakl, ham ma'noviy jihatdan to'g'ri tanlanganligi bilan diqqatga sazovor. Ijodkorning tasavvur olami nihoyatda keng ekanki, biz buni yuqoridagi tahlillar orqali ham bilishimiz mumkin. Shu ma'noda shoir Shavkat Rahmon she'rlarida har bir jumlaning o'mi beqiyosligini biz uning ayrim she'rlari misolida birozgina to'xtalib o'tdik, xolos. Ammo shoirning "Saylanma"sida mag'zi chaqilmagan, "tesha tegmagan" jumlalar hali talaygina. Biz bularni kelgusi ishlarimizda yoritishga harakat qilamiz.



## **ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2019.21.10 нуткидан.
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. V жилд.–Тошкент: ЎзМЭ, 2008.– 591 б.
3. Шавкат Раҳмон. САЙЛАНМА. “ШАРК” нашриёт-матбаа концерни. Бош таҳририяти. Тошкент .1997